Turistik mahsulotni shakllantirishda turistlar hayoti xavfsizligini ta'minlash 1005
Raxmonov Siyovush Turob o'g'li

Uglerodsiz energiyaga o'tishda o'zbekistonning yashil strategiya yo'l xaritasining integratsiyasi va ta'siri 1011
Nuraliyeva Komila Sanakulovna

Цифровая устойчивость регионов: применение аналитики больших данных для оценки и управления экологическими рисками 1016
Маликов Шохрух Шокирович, Камалов Шухрат Камалович

Разработка риск-ориентированной модели внутреннего контроля предприятия на этапе планирования налогов в условиях дистанционного налогового мониторинга 1024
Галеева Н.Н., Э.А.Халикова, Абдусаломова Гулчеҳра Мирзо қизи

Анализ результатов инструментальных методов исследований у детей с врожденными пороками сердца 1029
Мухаммадиева Лола Атамурадовна

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari 1036
Uskenbaeva Dilnoza Boxodir qizi

Факторы повышения эффективности управления в государственном секторе 1043
Махмудова Севара Улугбековна

Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati 1048
Rajabbaeva Dildora Zakirovna, Aripova Aziza Alisherovna

Boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi 1053
Jo'rayeva Niginaxonim Xursand qizi

Jahonda eksportni qo'llab-quvvatlash amaliyoti 1057
Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich

Raqamli moliyaviy texnologiyalarni korxona darajasida joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi 1063
Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li

Применение методов PMBOK в управлении рисками проектов 1070
Гулираъно Носирова Абдулазиз кизи

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda aholi farovonligining o'rni va ahamiyati 1073
Bobaev Isroiljon Abdinabievich

Вопросы инновационных инвестиций в контексте международной экономической интеграции 1078
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич

Yashil iqtisodiyotga o'tishning nazariy va amaliy jihatlari hamda tendensiyalari 1083
Samiyev Abdurashid Qaxramonovich, Shermuxammedov Begzodjon Usmonovich

Tijorat banklarida muammoli kreditlar samaradorligini ta'minlash yo'llari 1087
Nazarov Qilich Xolmuradovich

Improving the organizational and economic mechanisms for the development of tourism in the republic of karakalpakstan 1092
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich

O'zbekistonda tumanlar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari (Surxondaryo viloyati misolida) 1097
Qosimova Nodira Saidovna

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosi sifatida innovatsiyalar 1102
Azizova Maliha Farrux qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Влияние инвестиций на инновационное развитие и повышение конкурентоспособности экономики узбекистана 1106
Максудова Шахзода

Возможности снижения затрат на логистику за счет цифровых технологий 1112
Олимова Бахора Шухратовна

Yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'siri 1116
Sultonov Omon Juma o'g'li

Iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlari va ularning ta'siri 1121
Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li

Роль управления производством в условиях модернизации экономики 1125
Гулов Мухтор Очилович

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va ahamiyati 1129
To'rayev Shavkat Shuxratovich

Роль цифрового маркетинга в продвижении туристических направлений 1136
Муродова Наргиза Уткировна

Развитие финансовых рынков в странах снг: проблемы и перспективы 1140
Рузиев Зафар Икрамович, Каримов Ислом Ураз угли

Современные инструменты продвижения бренда в условиях цифровой экономики 1145
Темирова Феруза Сагдуллаевна

"Raqamli asrda axborot xavfsizligi: it texnologiyalar bilan xavfsizlikni ta'minlash yo'llari" 1149
Sherzod Rajabov

Государственное регулирование инвестиционной деятельности: проблемы и направления совершенствования 1152
Шухрат Турсунов, Икромов Хасан Зафарович

Economic incentives and barriers to sustainable transition in agribusiness: a comparative study of organic and conventional farming systems 1157
Mubina Toirova

Цифровая трансформация банковской системы узбекистана: анализ внедрения fintech-решений в государственных банках 1162
Абдурахимова Дилора Каримовна

Ta'lim muassasalaridagi ba'zi jihatlar 1167
A'zam Qutbiddin A'zam-zoda

Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari 1173
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich

Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendensiyalariga oid nazariy munozaralar xususida 1179
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich

Ekologik mehmonhona faoliyatini rejalashtirish maqsadlari va vazifalari 1186
Abidova Dilfuza Igamberdievna

Budjetlashtirish bo'yicha tashkiliy va uslubiy yondashuvlar tahlili. 1195
Xoshimov Baxrom Baxadirovich

Investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini oshirish istiqbollari 1200
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tahlili 1204
Aliyev Arslon Salom o'g'li

O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish 1213
Jumanova Zilola Tuychiyevna

Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati 1219
Ruziyev G'anisher Usarovich

Yer fondi va undan samarali foydalanishning nazariy asoslari (Samarqand viloyati misolida) 1225
Xoshimova Sevara Baxromovna

Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslari 1229
Kuldoshev Asliddin Tursunovich

Влияние финтех-услуг на финансовую инклюзию в сельских регионах узбекистана 1236
Абдурахимова Дилора Каримовна

Surxondaryo viloyati sanoat sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili 1240
Kuvanchiyeva Mehriniso Davlyatgeldi qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

A critical evaluation of strategic management's role in promoting sustainable development in Uzbekistan 1245
Ismatova Mahliyo

O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi 1251
Akmal Bakhromov

Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises 1257
F.Djalilov

Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки 1269
Махкамова Саида Гайратова

Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish 1275
Xojiev Ibroxim Ikramovich

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari 1280
Allanazarova B.K.

SUG‘URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING MUHIM SHARTLARI

Allanazarova B.K.
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
tayanch doktorant
ORCID: 0009-0002-8273-486X

Annotatsiya: Ushbu maqolada sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalasi bo‘yicha tadqiqot olib borilgan. Xususan, “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar chuqur tahlil qilingan, shuningdek, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligiga oid turli qarashlar va yondashuvlar ham atroflicha o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, sug‘urta kompaniyasi, moliyaviy barqarorlik, o‘z mablag‘lari, sug‘urta zaxiralari, ustav kapital, sug‘urta majburiyatlari, to‘lov qobiliyati.

Abstract: This article presents a study on ensuring the financial stability of insurance companies. In particular, it provides a detailed analysis of the factors influencing the financial stability of the "O‘zbekinvest" export-import insurance company and formulates relevant requirements and recommendations. It also thoroughly examines various perspectives and approaches related to the financial stability of insurers.

Key words: insurance, insurance company, financial stability, own funds, insurance reserves, charter capital, insurance liabilities, solvency.

Аннотация: В данной статье проведено исследование обеспечения финансовой устойчивости страховых компаний. В частности, глубоко проанализированы факторы, влияющие на финансовую устойчивость экспортно-импортной страховой компании “O‘zbekinvest”, а также разработаны соответствующие требования и рекомендации. Кроме того, всесторонне изучены различные взгляды и подходы к финансовой устойчивости страховщиков.

Ключевые слова: страхование, страховая компания, финансовая устойчивость, собственные средства, страховые резервы, уставной капитал, страховые обязательства, платёжеспособность.

KIRISH

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Zero, sug‘urta bozorining barqarorligi hamda sug‘urta mahsuloti iste’molchilarining manfaatlarini himoya qilish aynan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini samarali boshqarishga chambarchas bog‘liq.

Evropa Sug‘urta va Mehnat Pensiyalari Boshqarmasi (EIOPA)ning Solvency II ma’lumotlar bazasiga ko‘ra, Evropa iqtisodiy zonasida sug‘urta tashkilotlarining daromadlilik koeffitsiyenti 2022-yildagi 10 foizdan 2023-

yilda 9 foizga qayta tiklangan. Biroq inflyatsiyaning o‘sish tendensiyalari hamda foyda olishga to‘sqinlik qiluvchi xarajatlarning ortib borayotgani sababli sug‘urta mahsulotlarining haqiqiy daromadliligiga nisbatan xavf-xatar vujudga kelgan[1]. Bu esa, o‘z navbatida, global miqyosda sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash nafaqat unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etuvchi omillar – xususan, bozordagi raqobat muhiti, tarif siyosati va qayta sug‘urta tizimlarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi – balki mamlakat mintaqalarida faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalari hamda ularning hududlardagi tarkibiy tuzilmalari faoliyatiga ham bevosita bog‘liqdir.

Ushbu maqolada biz sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda hududiy tuzilmalar – ya’ni sug‘urta kompaniyalarining hududlardagi filiallari va savdo markazlari – qanchalik o‘rin tutishini ilmiy nuqtai nazardan o‘rganishga harakat qilamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sug‘urta sohasidagi taniqli tadqiqotchilar va mutaxassislar tomonidan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini boshqarishga oid qator ilmiy asarlar e’lon qilingan. Jumladan, S. F. Mirzoyevning fikriga ko‘ra: “Agar sug‘urta tashkilotida o‘z aktivlariga mos sug‘urta portfeli shakllantirilmasa, uning moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sirlar yuzaga keladi”[2].

Bizning fikrimizcha, sug‘urta tashkilotlari o‘z zimmasiga olgan sug‘urta majburiyatlari hajmiga mos keladigan sug‘urta zaxiralarini shakllantirishlari maqsadga muvofiq. Aynan sug‘urta zaxiralari sug‘urtalovchi qabul qilgan sug‘urta majburiyatlarining bajarilishini ta’minlovchi asosiy vosita hisoblanadi.

Sug‘urta tashkilotining moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi muhim omil – yetarli ustav kapitali va sezilarli miqdordagi zaxira fondlaridan tashqari, sug‘urta operatsiyalarining daromadliligi hisoblanadi. Bu daromadlilik balans (yalpi) foydaning daromad qismiga nisbati bilan aniqlanadi[3]:

R = (balansli foyda / daromad) × 100

Ma’lumki, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashning eng muhim shartlaridan biri – ularning real to‘lov qobiliyatiga egaligidir. Quyida sug‘urtalovchilar moliyaviy barqarorligini ta’minlashning asosiy shartlari keltirilgan:

Sug‘urtalovchilar to‘lovga layoqatlilik kafolatlarini ta’minlash maqsadida aktivlar va o‘zlari qabul qilgan sug‘urta majburiyatlari o‘rtasidagi me’yoriy nisbatlarga rioya etishlari shart.

O‘z mablag‘lari va sug‘urta zaxiralari hisobidan bajarish imkoniyatlaridan ortiq hajmda majburiyat olgan sug‘urtalovchilar tegishli majburiyatlarni bajarish xavfini qayta sug‘urta tashkilotlarida sug‘urtalashlari lozim.

Sug‘urta zaxiralari likvidlik, diversifikatsiya, qaytarilish va daromadlilik tamoyillari asosida joylashtirilishi zarur.

So‘nggi yillarda sug‘urta tashkilotlarining to‘lovga qobiliyatlilik tushunchalarini yoritish, sug‘urta portfelini shakllantirish, riskni taqsimlash (qayta sug‘urtalash, birgalikda sug‘urtalash), sug‘urta zaxiralarini tashkil etish bilan bog‘liq to‘lovga qobiliyatlilikni ta’minlash mezonlari va usullarini tadqiq etishga qaratilgan bir qator ilmiy ishlar e’lon qilingan.

Bizning nazarimizda, sug‘urtalovchilarning samarali faoliyat yuritishida ularning moliyaviy jihatdan barqarorligini ta’minlash masalasi nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik sug‘urtalanuvchilarning sug‘urtalovchiga bo‘lgan ishonchini oshirishning muhim jihatlaridan biridir. I. Sh. Toshnazarovaning yozishicha:“Sug‘urta kompaniyalari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni baholash usullarining chegaralari va ularning butun tizimidan eng samarali foydalanish imkoniyatlari, shuningdek atamashunoslik, ko‘rsatkichlar algoritmi va ularni talqin etish, mulkchilik va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning mezonlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi”[4].

Shuningdek, tadqiqotchi M. S. Xamroevning ta’kidlashicha:“Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyati sug‘urtalanuvchilar manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular sug‘urtalovchining ishonchlilik ko‘rsatkichlari hisoblanib, potensial mijozlarning sohaga bo‘lgan ishonchini ta’minlaydi”[5].

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning fikr-mulohazalarini umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkinki, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va boshqarish nihoyatda katta ahamiyatga ega. Shu bois, sug‘urta bozori regulyatori turli prudensial me’yorlarni o‘rnatish orqali sug‘urta tashkilotlarining doimiy moliyaviy barqaror faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Ta’kidlash joizki, sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish kompleks xarakterga ega jarayon ekanligini yoddan chiqarmaslik zarur. Zero, amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajriba asosida sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilish bo‘yicha quyidagi taxminiy ketma-ketlikni taklif etamiz:

Qoidaga ko‘ra, sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligini tahlil qilish yondashuvlarini aniqlashda birlamchi bosqich -tahlilning maqsadlarini belgilashdan iborat. Bu tahlilning yagona maqsadi sug‘urtalovchining moliyaviy

ahvoli, to‘lov qobiliyati, moliyaviy barqarorligi va ushbu tushunchalarning turli iqtisodiy holatlarda bir xil bo‘lmagan ta’sir omillariga ko‘ra o‘zgarishini aniqlab, shaffof va asoslangan ma’lumotlar olishdir.

Keyingi bosqichlarda qo‘yilgan maqsad quyidagi xususiyatlarga ko‘ra talqin qilinadi:

• tahlil natijalaridan foydalanish shakli - ichki yoki tashqi, ommaviy hisobot doirasida yoki xususiy;

tahlilni o‘tkazish tartibi - rejali yoki rejadan tashqari, kompleks yoki tanlab, majburiy yoki ixtiyoriy;

foydalanuvchilar - davlat nazorati organlari, sug‘urta kompaniyasi rahbariyati va ta’sischilari, sug‘urtalanuvchilar, kreditorlar, hamkorlar va boshqalar.

Ushbu omillar tahlil metodikalarini tanlashda asosiy omil hisoblanadi.

Sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi tahlili quyidagi darajalarda amalga oshiriladi:

• qonunchilik darajasi - O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va me’yoriy hujjatlari asosida;

• individual daraja - tahlil natijalaridan foydalanuvchilarning ehtiyojlari, da’volari va talablariga mos holda.

Shuningdek, sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini tahlil qilish boshqaruv operatsiyasi sifatida quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

subyekt;
obyekt;
predmet;
tamoyillar;
metodika;
texnika va texnologiya;
jarayon;
boshlang‘ich ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash;
tahlil xarajatlari;
qaror qabul qiluvchi subyekt;
natijalar asosida qaror qabul qilish.

Xorijiy iqtisodchi olim David Bland sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va boshqarish borasida quyidagilarni ta’kidlaydi:

“Sug‘urtalovchilarning ishonchliligi - ular boshqaradigan fondning to‘lov qobiliyatidadir: bu yuzaga keladigan sug‘urta da’volarini qondirish qobiliyatidir. Umumiy sug‘urta sug‘urtalovchilarining ishonchliligi uchun uchta asosiy omil xavf tug‘diradi:

Noto‘g‘ri statistik va texnik ma’lumotlar, da’volarni tahlil qilishning asta-sekin yomonlashuvi, tuzatish choralarining samarasizligi natijasida yetarli bo‘lmagan sug‘urta mukofotlari va zaxiralar yaratilishi.

Yirik sug‘urta da’volarining to‘planib qolishi, ularga qarshi qayta sug‘urtalash kabi zarur choralar ko‘rilmasligi.

Ayrim holatlarda kapital qo‘yilmalar va boshqa aktivlarning yo‘qotilishi”[6].

Darhaqiqat, David Blandning qarashlari e’tiborga molik bo‘lib, ularning asosi xalqaro tajribalarga tayangan hamda rivojlangan mamlakatlar sug‘urta bozorlarida amal qiladigan moliyaviy barqarorlik tamoyillarini ifoda etadi.

Odatda, ko‘plab sug‘urta mahsuloti iste’molchilari quyidagi savolga javob izlaydi: “Sug‘urtalovchi ishonchli va to‘lovga qodirmi?”. Buning sababi shundaki, ayrim hollarda sug‘urta tashkilotlari o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarmasdan, sug‘urta shartnomalari shartlariga rioya etmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, sug‘urta nazorati organlari tomonidan bunday sug‘urta tashkilotlariga nisbatan choralar ko‘rilishiga sabab bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va boshqarishda metodologik yondashuvlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri -bu moliyaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi omillarni aniqlashdir.

Ushbu tadqiqot doirasida ilmiy dissertatsiyalar, statistik ma’lumotlar, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari hamda yetuk iqtisodchilarning ilmiy qarashlari asos sifatida o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil hamda baholash usullari orqali chuqur tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug‘urta tashkilotlari faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlaridan biri -foyda bo‘lib, u ayni paytda sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu munosabat bilan, biz quyida O‘zbekiston sug‘urta bozorining yirik ishtirokchilaridan biri -“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi misolida sof foyda dinamikasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (1-rasm).



1-rasm. “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi sof foydasining o‘zgarish dinamikasi 777

Yuqorida keltirilgan rasmda aks etgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasining sof foydasi, 2021-yil bundan mustasno, doimiy o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Masalan, 2021-yilda kompaniyaning sof foydasi 5 138,4 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 44 667,9 mln so‘mga yetgan. Ya’ni, sof foydaning o‘sishi deyarli 9 barobarga teng bo‘lgan.

Shundan xulosa qilish mumkinki, kompaniyaning moliyaviy salohiyati hamda o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish qobiliyati yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

1-jadval. “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasining o‘z mablag‘lari tarkibi 888, mln so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
1	O‘z mablag‘lari	824668,6	828877,2	837428,8	852006,1	848145,4
2	Ustav kapitali	282216,4	282216,4	282216,4	282216,4	296327,2
3	Zaxira kapitali	26018,4	25088,6	32087,7	30011,3	30315,4
4	Taqsimlanmagan foyda	40124,0	45262,5	46815	63468,6	45193,1
5	Maqsadli tushumlar	476309,7	476309,7	476309,7	476309,7	476309,7

Jadval ma’lumotlarini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, tahlil etilayotgan davrda “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasining o‘z mablag‘lari miqdori notekis tendensiyani namoyon etgan.

Ya’ni, 2020–2023-yillar davomida o‘z mablag‘lari miqdori katta farq bilan bo‘lmasa-da, muntazam o‘sib borgan. Biroq, jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2024-yilda kompaniyaning o‘z mablag‘lari miqdori 2023-yilga nisbatan 3 860,7 million so‘mga, ya’ni 0,4 foizga kamaygan.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda o‘z mablag‘lari miqdori muhim omil hisoblanadi. Shu bois, yillar kesimida mazkur ko‘rsatkichning kamayishi, pirovard natijada, sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli, “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasiga o‘z mablag‘lari miqdorini doimiy ravishda oshirib borish tavsiya etiladi.

Bizning fikrimizcha, har qanday sug‘urta tashkilotining moliyaviy barqarorligiga, binobarin, sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyatiga ustav kapitali sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Quyidagi rasmda “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasining ustav kapitali o‘zgarish dinamikasi aks ettirilgan (2-rasm).



2-rasm. “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi ustav kapitali o‘zgarish dinamikasi

2020–2023-yillar davomida kompaniyaning ustav kapitali 282 216,4 million so‘m miqdorida o‘zgarishsiz qolgan bo‘lib, bu holat kompaniya moliyaviy tuzilmasida barqarorlikni saqlashga qaratilgan yondashuvni aks ettiradi.

Biroq, 2024-yilda ustav kapitali 296 327,2 million so‘mga oshgan bo‘lib, o‘sish sur’ati oldingi yillarga nisbatan 5 foizni tashkil etgan. Mazkur o‘sish kompaniyaning moliyaviy resurslarini kengaytirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilganini yoki qonunchilik talablariga rioya qilish maqsadida kapitalni oshirish zarurati yuzaga kelganligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ustav kapitalining barqarorligi kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilgan bo‘lsa-da, 2024-yildagi o‘sish sabablarini chuqurroq tahlil qilish, shuningdek, kelgusida kapitalni boshqarish strategiyalarini optimallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Sug‘urta zaxiralari esa sug‘urta tashkilotining zimmasidagi majburiyatlarni bajarishning asosiy manbalaridan biri sanaladi. Buning sababi shundaki, amaliyotda sug‘urta hodisalari sodir bo‘lishi natijasida yetkazilgan zararlar, asosan, sug‘urta zaxiralari hisobidan qoplanadi.

Shu boisdan, har qanday sug‘urta tashkilotining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda sug‘urta zaxiralari alohida o‘rin tutadi. Quyida “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi bo‘yicha sug‘urta zaxiralari miqdoriga oid ma’lumotlar keltirilgan (3-rasm).



3-rasm. “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi sug‘urta zaxiralari o‘zgarish dinamikasi

Rasmda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2020–2024-yillar davomida "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasining sug'urta zaxiralari miqdori doimiy ravishda oshib borgan. Ayniqsa, 2022-yilda sug'urta zaxiralari 2021-yilga nisbatan keskin oshganini kuzatish mumkin.

Xususan, 2022-yilda kompaniyaning sug'urta zaxiralari 946 094,8 million so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2021-yildagiga nisbatan 612 159,9 million so'mga ko'pdir.

Rasm ma'lumotlari tahlili natijasida aniqlanishicha, 2024-yilda sug'urta zaxiralari 1 621 073,8 million so'mni tashkil etgan. Shubhasiz, bu kabi barqaror o'sish tendensiyasi kompaniyaning moliyaviy qudratini mustahkamlashi bilan bir qatorda, sug'urta xizmatlarini ko'rsatish, jumladan, sug'urta da'volarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va qoplash imkoniyatlarini kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda o'z mablag'lari, xususan ustav kapitali va sug'urta zaxiralari muhim omillar ekanligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan "Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar)ning sug'urta zaxiralarini shakllantirish va to'lov qobiliyatini aniqlash metodikasini Solvency II me'yorlariga muvofiqlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish" vazifasi ayni muddaodir 111111.

Afsuski, ushbu maqola doirasida sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi muhim vositalardan biri bo'lgan qayta sug'urta mexanizmiga yetarli e'tibor qaratish imkoni bo'lmadi. Zotan, qayta sug'urta tizimi sug'urtalovchilarga faoliyat doirasini kengaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-maydagi PQ-191-sonli "Mamlakatimizda qayta sug'urta tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga 121212 asosan tashkil etilgan "O'zbekiston qayta sug'urta kompaniyasi" milliy qayta sug'urta tashkiloti, sug'urta kompaniyalarining mijozlar oldidagi ishonchini oshirish bilan birga, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi jihatidan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. ConsumerTrends Report-2024.URL: https://www.eiopa.europa.eu/publications/consumer-trends-report-2024_en. -B. 10.
2. Mirzoyev S.F. O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda anderrayting xizmatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. -Toshkent: 2022. - 15-bet.
3. Гвозденко А.А. Финансово-экономические методы страхования: Учебник. – М.: Финансы и статистика, 1998. – С. 80.
4. Toshnazarova L.Sh. O'zbekiston milliy sug'urta bozorining samarali faoliyatini ta'minlash yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: 2025. – 70-bet.
5. Xamroev M.S. Sug'urta xizmatlari bozorining innovatsion faoliyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: 2021. – 57-bet.
6. Bland D. Insurance: Principles and Practice. – UK: The Chartered Insurance Institute, 1993. – P. 187.
7. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan. "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi hisobot ma'lumotlari asosida. – 1-rasm.
8. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan. "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi hisobot ma'lumotlari asosida. – 1-jadval.
9. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan. "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi hisobot ma'lumotlari asosida. – 2-rasm.
10. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan. "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi hisobot ma'lumotlari asosida. – 3-rasm.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son qarori. "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida" – URL: https://lex.uz/uz/docs/-6824178
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-maydagi PQ-191-son qarori. "Mamlakatimizda qayta sug'urta tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" -URL: https://lex.uz/uz/docs/-7540329

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2025. № 5

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz